E Conference World
International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research
Hosted online from Nottingham, UK
Date: 30th December, 2023
Website: https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index

# REPRODUKTIV SALOMATLIK

Shermatova Yoqutxon Sabirovna
Pedagogika – psixologiya fakulteti
Inklyuziv ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Abdurahmonova Dilafruz Botirjon qizi,
Ahmedova Yulduzoy Doniyorbek qizi,
Axunjonova Madina Ahmadjon qizi,
Surdopedagogika Yo'nalishi Talabalari

**Annotatsiya:**
Ushbu maqolada repraduktiv salomatlik, jinsiy tarbiya, yoshlarni balog'atga yetish davrlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Reproduktiv, salomatlik, anatomik, fiziologik, jinsiy tarbiya, o'sish,yetilish, tiklanish, takrorlanish,oila.

# РЕПРОДУКТИВНОЕ ЗДОРОВЬЕ

Шерматова Якутхон Сабировна
Педагогико-психологический факультет
Преподаватель кафедры инклюзивного образования

Абдурахманова Дилафруз Ботиржон кизи,
Ахмедова Юлдузой Дониёрбек кизи,
Ахунжонова Мадина Ахмаджон кизи,
Студенты направления сурдопедагогика

**Аннотация:**

В этой статье представлена информация о репродуктивном здоровье, половом воспитании, периодах полового созревания молодежи.

**Ключевые слова:** репродуктивный, здоровье, анатомический, физиологический,половое воспитание, рост, созревание,восстановление, повторение, семья

# REPRODUCTIVE HEALTH

Yakutkhon Sabirovna Shermatova
Pedagogy-Faculty of Psychology
Teacher of the Department of Inclusive Education

Abdurakhmanova Dilafruz Botirjon kizi,
Akhmedova Yulduzoy Doniyorbek kizi,
Ahunjanova Madina Akhmadjon kizi,
Students of the direction of sign language teaching

**Abstract:** This article provides information on reproductive health, sex education, and puberty of young people.

**Keywords:** reproductive, health, anatomical, physiological,sex education, growth, maturation,recovery, repetition, family

Reproduktiv so'zi Lotinchadan re- tiklanish, takrorlanish, produco-yaratаman ma'nosini anglatadi. Reproduktiv-biologiyada organizmning o'ziga o'xshash organizmlarni yaritishi, ko'payishi ma'nosini bildiradi.Reproduktiv salomatlik, ya'ni ayolning qachon va qanday sharoitlarda ona bo'lishini navzorat qilish, onaning ham va undan tug'ilajak bolaning ham salomatligi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish degani. Reproduktiv salomatlik masalasi faqat oilada tug'ilajak bolalar sonini cheklashgina emas, balki u ichiga kengroq masalalarni qamrab oladi. Bunga asosiy e'tibor oilada oilalar farovonligini ta'minlash, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, onalar va bolalar salomatligini saqlash, oilalarining tom ma'noda mustaqkamligini ta'minlash kabilar nazarda tutiladi. Oilaning muhim bo'lgan funktsiyalaridan biri-bu uning reproduktiv (jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funktsiyasidir. Oilaning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirgan holda, ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboritdir. Oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv funktsiyasi va uning bajarilishi deyilganda aholi sonining qayta tiklinishi uchun har bir oilada nechta farzand bo'lishi nazarda tutiladi.

Bolag'at yoshi qizaloqning katta qizga, o'g'il bolaning yigitga aylanish davri hisoblanadi. O'smirlik davri-insonning bolag'atga yetish davri o'ziga xos jihatlari bilan boshqa yosh davrlardan keskin farqlanadi. Bolag'at davri 11-15 yosh hisoblanadi. Ayni shu davrda o'g'il va qiz bolalarda jismoniy o'sish va yetilish yuzaga keladi. Bu davr har bir o'g'il va qizda turlicha kechadi. Jinsiy yetilish davri. 8-9 yoshdan boshlanib,18-19 yoshgacha davom etadi. Bu davrda sodir bo'ladigan o'zgarishlar jinsiy gormonlarga bog'liq. Jinsiy gormonlar o'zi

nima? Bu shunday moddaki, uning organizmda ishlab chiqishi, tashqi qiyofadagi o'zgarishlar hamda jinsiy alomatlarning rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Bu moddalar juda kam miqdorda ishlanib chiqishiga sut bezlari rivojlana boshlaydi. O'g'il bolalarning yelkalari kengayadi, ko'krak qafasi mushaklari rivojlanadi. Ovozi pastroq tembrga ega bo'ladi, sezilarli darajada yo'g'onlashadi. Bu davrda o'smirning yuzlari va ko'kragida tuk o'sa boshlaydi. Jinsiy yetilish davri organizmning biologik va jinsiy jihatdan rivojlanish va bolag'atga yetishidir. Bu davrda o'g'il va qiz bolalarda ikqilamchi jinsiy belgilar paydo bo'ladi. O'g'il bolalarning ovozi do'rillab, mo'ylovi sabza ura boshlaydi. O'g'il bolalar 10-11 yoshdan jinsiy yetilish davriga kirsalar, qizlar 9-10 yoshdan boshlab jinsiy rivojlanishni boshdan kechira boshlaydi. Qizlarda 9-10 yoshdan tos suyagining o'sishi, 10-11 yoshdan sut bezlarining rivojlana boshlashi, qov sohasida tuklarining o'sishi, 11-12 yoshdan tashqi jinsiy a'zolarining rivojlanishi kuzatiladi. Balog'at yoshida o'sish ba'zida normal kechishi, ba'zan esa ayrim o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. Bu fiziologik hodisa hisoblanadi.

Jinsiy yetilish iqlim sharoiti yoki ota-onaning belgilari, asab tizimining xususiyatlari, shahar yoki qishloq, tog'li yoki dengiz bo'yida yashashiga ko'ra turlicha kechadi. Masalan jinsiy rivojlanish janubiy va sharqiy mintaqalarda yashovchi xalqlarda shimoliy o'lkalarda yashovchilarga nisbatan ilgariroq boshlanadi. Jinsiy bolag'at davrida o'g'il va qiz bolalarda mehnat faoliyatining susayishi, tez charchab qolishi, bosh og'rishi, kayfiyatning tez-tez bo'zilib turilishi hollari kuzatiladi. Balog'at davri o'g'il va qizlarda o'ziga bino qo'yish, o'zini juda bilag'on qilib ko'rsatishga intilish, serzardalik, odamovilik kuzatiladi.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) yaxshi jinsiy tarbiya jinsiy faollika olib kelmaydi, aksincha uni tutib turadi va yoshlarni kelgusi hayotga tayyorlaydi, degan xulosaga keldi. Jinsiy tarbiya qadriyatlar, madaniy meyorlarga mos shakllanuvchi inson hatti harakatlariga kiradigan psixologik ta'sirlanishni ham nazarda tutadi. Bu diniy va an'anaviy kontseptsiyalarni birlashtiruvchi madaniy merosning bir qismidir. Jinsiy tarbiy insonning biologik-emotsional muhtojligi va madaniy meros orasidagi mutanosibligini topishga harakat qiladi va o'z ichiga jinsiy a'zolar anatomiyasi va fiziologiyasini qamrab oladi, hamda shaxs turli qarashlar shakllanishida yuz beradigan o'zgarishlar ham kiradi. Jinsiy tarbiya tarkibiga o'zi va o'zgalarga nisbatan hurmat, insonlararo munosabatlar, bo'lajak jinsiy sherikka nisbatan hurmat va jinsiy munosabatlarda o'zaro his-to'yg'ular ham kiradi. Yoshlarga jinsiy tarbiya insonning jinsiy moyilligiga nisbatan yaxshi munosabat bildirish, o'zini o'zi baholash qobiliyati shakllanishida va o'zi mansub bo'lgan jamiyat chegarasida jinsiy va reproduktiv ahloqqa nisbatan bir qarorga kela olish salohiyatining shakllanishida yordam berishi kerak.

Mamlakatimizda oila qurishga 18 yoshdan boshlab ruhsat etiladi. Bu yigit va qizlar organizmining morfologik va fiziologik jihatdan (bosh miya, skelet, muskullar, ichki sekretsiya bezlari, xususan jinsiy a'zolar) takomilga yetishi 18 yoshga yetganda tugallanishi bilan izohlanadi. CHunki onalik bilan bog'liq bo'lgan barcha funktsiyalarni ayol jinsiy rivojlanish jarayonlari faqat to'liq tugallanganidagina risoladagidek amalga oshira oladi. Balog'atga yetmagan yoshda jinsiy hayotni boshlash, va ayniqsa, homiladorlik nafaqat onaning, balki zurriyodining ham sog'lig'iga zararli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, haddan ziyod yosh ona farzand tarbiyasi bilan yetarli darajada shug'ullana olmaydi.

Erta muddatlarda qurilgan nikoh hali o'sishi va rivojlanishi zarur bo'lgan qiz va yigitlar organizmini kuchsizlantirib, ularning ruhiy va jismoniy yetilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik qizlarda organizmning to'liq yetilishi taxminan yigirma yoshlarda, yigitlarda esa - yigirma uch yoshlarda tugallanadi.

Shu sababdan, qiz va yigitlar 17-18 yoshga to'lgani bilan bu hali ularning anatomik va fiziologik jihatdan butunlay yetilganliklarini bildirmaydi, chunki bu davrda chanoq-suyak sohalari hali to'liq suyaklanmagan bo'lib, shuningdek bu yoshdagi qizlarda ona bo'lish, homilaning taraqqiy etishi va bola tug'ish uchun normal sharoit vujudga kelmagan bo'ladi. 18 yoshga to'lmasdan turmush qurish aksariyat hollarda yigitga ham, qizga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy ravishda isbotlangan.

Amerikalik statistlarning ma'lumotlariga qaraganda bugungi kunda 21 mln o'smirning 50% dan ko'prog'i 15-19 yoshida jinsiy hayotni boshlashar ekan, 13-14 yoshli bolalarning taxminan 2 mln ga yaqini seksual faoldirlar, har 10 erkakdan 8 tasi va har 10 ayoldan 7 tasi hali balog'at yoshiga yetmasdanoq jinsiy hayotga qadam qo'yar ekanlar, barcha homiladorliklarning 38% i abort bilan, 25% i esa nikohsiz bola tug'ilishi bilan yakun topadi, maktabni tugatgunicha homilador bo'lib qolgan qizlarning 80% i uni mutlaqo bitirmaydilar.

Sir emaski, so'nggi yillarda mamlakatimizga shiddat bilan kirib kelayotgan G'arb ma'naviyati va madaniyati ta'siri ostida nikohsiz o'zaro aloqalar va buning natijasi o'laroq homiladorliklar, nikohsiz farzand tug'ib, ularni tirik yetim qilib tashlab ketayotganlar soni ortib borayotganligini shu o'rinda aytib o'tish joiz. Bu

hol bizning milliy qardiyatlarimizga yot ekanligidan tashqari, ijtimoiy va tibbiy mushkulotlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Nikoh qurish avvalo farzand ko'rishdek murakkab fiziologik funktsiyalar bilan aloqador bo'lganligi sababli, erta turmush qurish ko'pincha farzandsizlikka, chala bola tug'ilishiga va shuningdek, homilaning noto'g'ri rivojlanishiga yoki muddatidan oldin tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Oilaviy hayotga qadam qo'yishdan oldin, avvalo bo'lajak er-xotin o'z sog'liqlari haqida bir-birlarini xabardor etsalar, qolaversa shu masala bilan qiziqsalar, foydali bo'lar edi. SHu bois biz oilaviy hayot, xususan jinsiy hayotga taalluqli ayrim gigienik masalalar haqida qisqacha so'z yuritamiz.

Avvalo, nikohlanuvchilar tibbiy irsiyat sohasidagi mutaxassis vrach ko'rigidan o'tishlari maqsadga muvofiqdir. Bu esa, avvalo avloddan-avlodga o'tuvchi irsiy kasalliklarni, qolaversa, erdan xotinga, xotindan erga o'tuvchi ayrim yuqumli yoki tanosil kasalliklarni hamda farzandsizlikka olib keluvchi sabablarni aniqlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, qizlar o'zlarining shaxsiy fiziologik funktsiyalari bilan bog'liq bo'lgan tegishli gigiena qoidalariga ham rioya qilishlari muhim. Quyida jinsiy hayotga ilk bor qadam qo'yish bilan bog'liq bo'lgan ba'zi gigienik masalalar xususida to'xtalamiz.

Odatda birinchi bor jinsiy yaqinlik qilganda qizning iffat pardasi yirtilishi natijasida jinsiy a'zolardan ma'lum miqdorda qon ketadi. Turmushga chiqayotgan har bir qiz buning tabiiy holat ekanidan xabardor bo'lishi kerak. Ba'zan parda birinchi jinsiy yaqinlikda yirtilmasligi ham mumkin. Bunga sabab, uning elastik cho'ziluvchan yoki gardish shaklida bo'lishidir. SHu sababdan,

yosh kelin-kuyovlarning ana shu tabiiy holatni bilib qo'yishlari ayrim hollarda ko'ngilsiz hodisalarning oldini oladi.

Bundan tashqari, yana shu narsani ham yodda tutish lozimki, iffat pardasi jarohati bitmasdan, hamda hayz ko'rgan kunlarda jinsiy aloqa qilish aslo yaramaydi. CHunki bu davrda ichki jinsiy a'zolarga tashqaridan yuqumli kasalliklarning mikroblari tushishi uchun qulay sharoit bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, ichki va tashqi jinsiy a'zolarining turli yallig'lanish kasalliklarini keltirib chiqarishiga va hayzning kuchayishi hamda uzoqqa cho'zilishiga olib keladi.

Fikrimizni xulosalab, quyidagi tavsiyalarni havola etamiz:

1. Yaqin qon-qarindoshlar orasida qurilgan nikoh salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Binobarin, bu hollarda zurriyodda avloddan-avlodga o'tuvchi nasliy kasalliklarning yuzaga chiqishi va mustahkamlanishi ehtimoli ancha yuqori bo'ladi. SHu boisdan, yaqin qarindosh-urug'larning bir-birlariga nikohlanishlari tibbiyot nuqtai-nazaridan g'oyat zararli hisoblanadi.

2. Kelin-kuyovning salomatligi uchun gigiena qoidalariga rioya qilish ayniqsa muhim: mehnat va hordiqni to'g'ri tashkil qilish, tungi uyquning yetarli darajada bo'lishi, ovqatlanishning sifat va miqdor jihatdan to'liq bo'lishi, foydali tabiiy omillardan keng foydalanilgan holda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, tana ozodaligiga rioya qilish shular jumlasidandir.

3. Sog'lom nasl qoldirish uchun avvalo tamaki va nos chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish va shu kabi boshqa yomon odatlardan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

4. Jinsiy yaqinlik vaqtida normal jinsiy aloqa qilishga monelik tug'diruvchi sabablar yuzaga kelganda, albatta mutaxassis vrachga murojaat qilish va uning maslahatiga rioya qilish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sabirovna, Shermatova Yaqutxon. "KUYISHDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH ASOSLARI." *ILMIY TADQIQOTLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI* 1.2 (2023): 12-17.
2. Yokutkhon, Shermatova. "HEALTHY LIFESTYLE." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429* 11.12 (2022): 254-259.
3. Shahnigor, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Khomidova. "FORMATION OF KNOWLEDGE, SKILLS AND COMPETENCES IN THE PROCESS OF TRAINING CHILDREN WITH HEARING DEFECTS TO WORK." *Confrencea* 3.03 (2023): 188-192.
4. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "COCHLEAR IMPLANTATION: AN INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY, MEDICINE, DEAF PEDAGOGY AND SPEECH THERAPY." *Open Access Repository* 4.2 (2023): 321-330.
5. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabanu. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 563-566.

6. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea* 3.03 (2023): 226-230.
7. Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).
8. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Nabiyeva Umidakhan. "ORGANIZING SOCIAL WORK ACTIVITIES OF STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS." (2023).
9. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Odilova Rislig'oy. "PROBLEMS OF PREPARING HIGH SCHOOL STUDENTS WITH HEARING DEFECTS FOR FAMILY LIFE." (2023).
10. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Sharafuddinova Zuhra. "FORMATION OF MATHEMATICAL CONCEPTS OF CHILDREN WITH HEARING DEFECT USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES." (2023).
11. Komiljon, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Sattarova Kamola. "PEDAGOGICAL AND EDUCATIONAL SYSTEM OF EDWARD SEGEN IN SPECIAL PEDAGOGY." *Confrencea* 3.03 (2023): 63-67.
12. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhan. "CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF AUDITORY-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).

13. Tavakkaljan, Meliboyev. "THE IMPORTANCE OF THE FOUNDATIONS OF MEDICAL KNOWLEDGE AND ITS DIRECTIONS." *Science Promotion* 1.1 (2023): 82-87.,
14. Turgunovich, Meliboyev Tavakkal. "ISSUES OF STRENGTHENING THE REPRODUCTIVE HEALTH OF THE POPULATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.10 (2023): 52-56.
15. Meliboyev, Tavakkal. "OF HEREDITY IN THE FORMATION OF A HEALTHY AND SICK ORGANISM." *Models and methods in modern science* 2.11 (2023): 56-59.
16. Sabirovna, Shermatova Yaqutxon. "HARAKAT–TAYANCH APPARATINING MEXANIK SHIKASTLANISHLARI." *ILMIY TADQIQOTLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI* 1.2 (2023): 18-22.
17. Ilxomovna, Raximova Muniraxon. "The role of logorhythmic in working with children with hearing impairments." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 30-34.
18. Ilhomovna, Rahimova Muniraxon, and Erkinova Sarvinoz. "Modern Methods Of Pedagogical Examination Of Children With Hearing Impairments." *European Scholar Journal* 2.10 (2021): 118-119.
19. Raximova, Muniraxon Ilxomovna. "THE ROLE OF LOGORHYTHMIC IN WORKING WITH CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS." *Asian Journal of Multidimensional Research*.
20. Ibragimovna, Turg‘unboyeva Zulxumor. "ZAIF ESHITUVCHI O‘QUVCHILARNI NUTQIY SIFATLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI." *Science Promotion* 1.2 (2023): 131-138.

21. Minavvarovna, Umarova Saboxon. "BASIC PATHOLOGY OF CHILDREN'S BRAIN." *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan* 1.6 (2023): 271-276.
22. Minavvarovna, Umarova Saboxon. "THE MAIN TYPES OF HUMAN WORK AND THEIR IMPACT ON THE HUMAN BODY." *Journal of new century innovations* 20.4 (2023): 74-78.
23. Umarova, S. M., and M. F. Raxmonalieyeva. "THE IMPACT OF MENTAL DISORDERS ON CHILDREN'S HEALTH." *Евразийский журнал академических исследований* 2.5 (2022): 528-531.
24. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "Kasbiy faoliyatda zamonaviy logopedni kompetentligini rivojlantirish yo'llari." *International Conference on Developments in EducationHosted from Delhi, India*. Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan, 2023.
25. Xonbabayeva, Madinabonu, and Mohigul Fayzimatova. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA UCHRAYDIGAN DISLALIYA NUQSONINING BARTARAF ETISH USULLARI." *Development of pedagogical technologies in modern sciences* 2.6 (2023): 39-42.
26. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "Logopedik mashg'ulotlarni olib borishda sujok terapiyaning o'rni." *International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England*. Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan, 2023.
27. Hatamjon o‘g‘li, Haydarov Islomjon. "Technologies for the Formation Of The Skill Of Creative Thinking In Weak Auditory Students." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &*

*INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429* 11.11 (2022): 265-271.

28. Haydarov, Islomjon. "PRACTICAL EXERCISES IN THE CLASSROOM OF SCIENCE LESSONS IN A SCHOOL FOR CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT." *Models and methods in modern science* 2.11 (2023): 123-125.
29. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "EDUCATION OF STUDENTS WITH HEARING DEFECTS THROUGH SCIENCE LESSONS DEVELOPMENT OF SPEECH AND THINKING." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 837-844.
30. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan. "PECULIARITIES OF WORKING WITH CHILDREN WITH MENTALLY RELATED IN THE CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION." (2023).
31. Madinakhan, Makhmudova, and Abdukhakimova Zumradkhan. "WAYS OF FORMING THE READINESS OF CHILDREN WITH UNDERDEVELOPED SPEECH FOR WRITTEN SPEECH." (2023).
32. Madinakhan, Makhmudova, and Abduvahobova Irodakhan. "PECULIARITIES IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL RETARDATION." (2023).
33. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol* 8.1 (2020).
34. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan, and Akhmedova Vazirakhan. "EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC

WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 134-141.
35. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." *Confrencea* 5.05 (2023): 299-302.
36. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Tahirova Mahliyo. "Ways To Increase The Vocabulary Of Mentally Retarded Children Of Preschool Age Based On Plot Role-Playing Games." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.2 (2023).
37. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Isodullayeva Iqboloy. "PHYSIOLOGICAL FOUNDATIONS OF SPEECH ACTIVITY." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 765-771.
38. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ёзиш ва ўқиш кўникмаларини эгаллашга тайёрлаш." *Confrencea* 4.04 (2023): 187-192.
39. Эркабоева, Нигора, et al. "Педагогик маҳорат: схема ва расмларда." *Т.:“Наврўз* (2012).
40. Erkaboeva, N., et al. "Pedagogical skills: in diagrams and pictures: Methodical manual." *Tashkent: TDPU named after Nizami* 14 (2012).
41. Эркабоева, Нигора Шерматовна. "ОСОБЕННОСТИ СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ СЕМЕЙ." *Ученый XXI века* 4-1 (2016).
42. Khayitov L. R., Komilov O. TECHNOLOGIES FOR GROWING SPEECH OF MENTALLY RETARDED CHILDREN OF PRESCHOOL AGE //Science Promotion. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 32-35.

43. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.1 (2020).
44. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching subjects in higher education on the basis of innovative technologies." Science Promotion 1.2 (2023): 98-104.
45. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." Confrencea 5.05 (2023): 299-302.
46. Feruza, Teshaboyeva. "INKLYUZIV TA'LIMNING O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISHI." QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 546-548.
47. Rahimovma, Teshaboeva Feruza, and Usmonjonova Saodatkhan Mirzakhamdamovna. "WAYS TO IMPROVE SPEECH ABILITIES OF CHILDREN WITH INTELLECTUAL DISABILITIES." (2023).
48. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza, and Sadiqova Munavvarkhan. "PECULIARITIES OF THINKING OF CHILDREN WITH SPEECH DEFECTS." (2023).
49. Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon. "Use Of Innovative Technologies In The Formation Of Speech Skills In Children With Hearing Disabilities." *Euro-Asia Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2021.
50. Sadikovna, Rakhimova Khurshidahon. "Objectives and tasks of cochlear implantation." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.4 (2022): 671-675.
51. Рахимова, Хуршидахон Содиковна. "Factors in the formation of motivation for independence in children on the basis of auditory and speech rehabilitation

after cochlear implantation." *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology* 2.10 (2020): 391-396.

52. Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon. "Preparation of preschool children with cochlear implants for independent learning." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 8.8 (2020): 159-161.
53. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "Hearing-speech rehabilitation of children with cochlear implants as a socio-pedagogical problem." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.11 (2022): 6-9.